

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR E'TIBORINING O'ZIGA XOSLIGI

Abduhalimova Farkunda Suxrobovna

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

1-bosqich talabasi farkundaabduhalimova@gmail.com

88 244 01 09

Shomurotov Ulug'bek Melikboboyevich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti, Pedagogika va psixologiya

kafedrasi o'qituvchisi (maqola ilmiy raxbari)

ulugbekshomurotov986@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarning e'tibori, uning mohiyati va uni rivojlantirishning pedagogik hamda psixologik omillarini o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: iste'dodli bolalar, qobiliyatlar, psixologik o'qitish, o'yinlar, ahamiyat, diqqat, pedagogik ko'nikmalar.

Kirish

Bolalarning e'tibori faqatgina bolalar bog'chasining sharoitlariga emas, balki oilaviy muhitga ham bog'liq. Shu sababli, bolalarning e'tibori bir xil darajada rivojlanishi olmaydi. Ba'zi bolalar oilada yetarlicha nazorat qilinmasa yoki aksincha, ortiqcha tartib va intizom ostida bo'lsa, ularda e'tiborning rivojlanishi cheklanishi mumkin. Misol uchun, ayrim bolalar bir joyda tinch o'tirishni bilmaydi yoki ularga topshiriq berilganda, so'zga qulq solmaydi. Bunday bolalar e'tiborini barqaror ushlab turish juda qiyin bo'ladi, chunki ular o'zlarini boshqarish qobiliyatiga ega emaslar. E'tibor qobiliyatining rivojlanishi ta'lim jarayonining muhim qismidir. O'qituvchilar bunday bolalar bilan individual yondashuvda ishlashlari kerak, masalan, ularga mas'uliyatli topshiriqlar berish, qiziqarli mashqlar orqali e'tibor qobiliyatini mustahkamlash lozim.

Maktabgacha yoshdagi bolalar e'tibori asosan nutq bilan bog'liq bo'lib, u o'quvchilarnikiga qaraganda ancha tor. Masalan, maktabgacha yoshdagi kichik guruh bolalari bir vaqtning o'zida faqat bitta yoki ikkita narsaga diqqatni jamlay oladi. Ular ikki narsaga bir vaqtning o'zida e'tibor bera olmaydi. Misol uchun, uch yoshli bola bir piyola suv olib kelish topshirig'ini olganda, suvni to'kib yuborishi yoki piyolani tushirib yuborishi mumkin. Bu uning e'tiborsizligi emas, balki e'tiborini bir vaqtning o'zida ikkiga bo'lish qiyinligidadir. Bolalarning e'tiborini kengaytirish uchun ularga turli faoliyatlar, masalan, ekskursiyalar, suratli hikoyalar orqali yordam berish zarur.

Bolalar bog‘chasida diqqatning ixtiyoriy shakli didaktik o‘yinlar orqali rivojlantiriladi. Bu mакtab ta’limi uchun muhim bo‘lgan xususiyatlarning asosini tashkil qiladi. Shuningdek, bolalar bog‘chasida ta’lim jarayonida e’tibor ixtiyoriy ravishda rivojlanadi. Bunday e’tibor asosan didaktik o‘yinlar va mehnat faoliyatida shakllanadi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim muassasalarida e’tiborni rivojlantirishga alohida e’tibor berilishi kerak.

Olim I.P. Pavlov diqqatni «nutqiy refleks» deb ta’riflaydi. Unga ko‘ra, diqqat yangi va kutilmagan stimullar orqali shakllanadi. Diqqatning fiziologik asosi bosh miya qobig‘idagi qo‘zg‘alish jarayonlari bilan bog‘liq. Shu asosda I.P. Pavlov e’tiborni «miya qobig‘idagi optimal qo‘zg‘alish manbai» sifatida izohlagan.

Xulosa

Maktabgacha yoshdagi bolalarning e’tibori rivojlanishi ularning keyingi ta’lim jarayonidagi muvaffaqiyatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Bu davrda bolalarning e’tiborini ixtiyoriy shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim, chunki ular hali to‘liq boshqariluvchi e’tibor shakliga ega emas. E’tiborning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi muhim omillar – oilaviy muhit, pedagogik yondashuv va o‘yin faoliyatlaridir. Psixologik va pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bolalarning e’tibor qobiliyatini kengaytirish uchun didaktik o‘yinlar va qiziqarli mashg‘ulotlar asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, o‘qituvchi va ota-onalar e’tibor qobiliyatini rivojlantirishda birgalikda ish olib borishlari muhim. E’tiborni rivojlantirish orqali bolalarda mas’uliyat hissi, diqqatni bir joyga jamlash qobiliyati va mustaqil faoliyat yuritish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu esa ularning mакtabda muvaffaqiyatli o‘qishiga va jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuviga zamin yaratadi. Shuning uchun maktabgacha ta’lim muassasalarida bu masalaga alohida ahamiyat qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gamezo M.V., Domashenko I.A. Psixologiya atlasi. M.: «Prosveshchenie», 1986.
2. Gipenreyter Yu.B. Umumiy psixologiyaga kirish. M.: CheRo, 1997.
3. James V. Psixologiya. M., 1991.
4. Karimova V. Psixologiya. Toshkent, 2002.
5. Maklakov A.G. Umumiy psixologiya. M.: «Piter», 2003.
6. Nemov R.S. Psixologiya, 1-jild. M., 1999.
7. Umumiy psixologiya: Ma’ruza kursi. Tuzuvchi: E.I. Rogov. M.: Vlados, 1995.
8. Umumiy psixologiya. Toshkent, 1992.